



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 14-dekabr, № 262 (9157)

Yakshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARIGA

Qadrlri yurtdoshlar!

Hurmatli dehqon va fermerlar, agrar soha jonkuyarlari!

Avvalo, siz, azizlarni, o'z hayotini qishloq xo'jaligi sohasiga bag'ishlagan yurtimizdagi barcha oliyanob kasb egalari qutlug' bayram — Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda sizlarning nafaqat qishloq xo'jaligi, balki butun iqtisodiyotimizni yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ulkan xizmatlaringizni yana bir bor minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Ayniqsa, bu yil, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramasdan agrar sektor rivojida sizlar bilan birga tub buriilish yasashga muvaffaq bo'ldik.

Paxta, g'alla va meva-sabzavot yetishtirish bo'yicha yangi navlarni ekish, zamonaviy agroteknologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori hosildorlikka erishdik.

Bu yil 3 mingdan ziyod mirishkor fermerlarimiz paxtachilikda hosildorlikni o'rtacha 50 — 60 sentnerdan, ularning 1,5 ming nafari esa 70 sentnerdan oshirganlari, g'allachilikda esa 3,5 mingdan ortiq tajribali fermerlarimiz o'rtacha 100 sentnerdan hosil olganlari, hech shubhasiz, ushbu tarmoqlar rivojida yangi davr boshlanayotganidan dalolat beradi.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundan iboratki, qishloq xo'jaligida eksport salohiyatimiz ortib bormoqda. Birgina shu yilning o'zida meva-sabzavotlarimiz yetkazib berilgan davlatlar soni esa 18 taga ko'payib, 83 taga yetdi.

Albatta, ana shunday raqam va ko'rsatkichlar ortida dehqon

va fermerlarimiz, klasterlar, umuman, qishloq va suv xo'jaligi sohasida jonbozlik ko'rsatayotgan har bir insonning mehnati, jasorati, fidoyiligi mujassam, desak, to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu bayram arafasida sizlar bilan joriy yildagi faoliyatimizni atroflicha muhokama qilib, agrotarmoq vakillaridan 110 nafariga davlatimizning yuksak mukofotlarini topshirdik. Ana shunday yuksak e'tirof bilan ularni yana bir bor samimiy muborakbod etaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Global iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi sharoitida xalqimizning sifatli oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash eng ustuvor vazifaga aylangan bugungi kunda barcha sohada bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham faqat zamonaviy bilim va tajriba, innovatsion yondashuvlar asosida ish olib borgan taqdiridagina ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga erisha olamiz. Buni dehqon va fermerlarimiz ham chuqur tushunib yetmoqda. Yaqinda Samarqand, Jizzax va Sirdaryoda sohada bo'layotgan o'zgarishlar bilan tanishib, bunga yana bir bor amin bo'ldim.

Shu ma'noda, qishloq xo'jaligi sohasida Yangi O'zbekistonning strategik yo'lini amalga oshirishda men avvalo sizlarga, agrotarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan 3,5 million nafardan ortiq yurtdoshlarimizga tayanaman. Sizlar uchun yana qanday sharoit va imkoniyatlar yaratish kerak bo'lsa, barchasini ta'minlab berishga tayyorman.

Chunki qishloq xo'jaligining taqdiri va kelajagi — bu butun mamlakatimizning taqdiri va kelajagidir.

Shu maqsadda kelgusi yildan boshlab

qo'shimcha ravishda paxta hosilining 50 foizini o'z hisobidan yetishtirgan fermerlarga 5 foiz subsidiya, shuningdek, soliq, lizing va kreditdan qarzi bo'lmagan fermerlarga esa imtiyozli kredit 2 foizgacha pasaytirilgan stavkada beriladi.

Qishloq xo'jaligida subsidiyalarni boshqarish bo'yicha yangi tizim joriy etilib, 6 ta vazirlik tomonidan berib kelingan 53 turdagi subsidiyalar endi faqat Agrar sohada to'lovlar agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda subsidiyalarni ajratishdagi ortiqcha byurokratik to'siqlar olib tashlanadi hamda fermer va dehqonlar subsidiyalarni olish uchun faqat elektron platforma orqali murojaat qiladi.

Yana bir imkoniyat — qishloq xo'jaligida hosilni sug'urtalash bo'yicha yangi tizimni yo'lga qo'yamiz. Endi qishloq xo'jaligi hosilini sug'urta qilishda dehqon va fermerlar xarajatlarning 50 foizini davlat qoplab beradi. Hosilni yo'qotishdagi zarar Qishloq xo'jaligini sug'urtalash jam'armasi orqali to'liq qoplab beriladi.

Ilg'or fermerlarni ustoz sifatida kam hosil olayotgan fermerlarga biriktirib, har ikki tomoniga ham manfaatli bo'ladigan tizimni yo'lga qo'yamiz. Bundan tashqari, “Yangi agronom” dasturi doirasida 180 nafar iqtidorli talabalarimizni yuqori malakali kadrlar sifatida tayyorlaymiz.

Birgina paxtachilikning o'zida dehqon va fermerlarni ko'llab-quvvatlashga 35 trillion so'm yo'naltiramiz.

G'alla yetishtirayotgan fermerlarga paxtadagi kabi yetishtirgan hosilining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratish tizimini yo'lga qo'yamiz. Bog'dorchilikda yangi bog' va tokzorlarni tashkil qilish, eskilarini yangilash

bo'yicha ishlarni uch yillik dastur asosida tashkil qilamiz.

Bundan buyon baliqchilikda naslni yangilash, natijadorlikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash uchun yangi rivojlantirish dasturini qabul qilamiz. Bunda “karp” hamda “sovuq suv” baliqlari naslchiligi yo'lga qo'yish bo'yicha vengriyalik va norvegiyalik hamkorlarimiz bilan ishlarni boshlaymiz.

Chetdan nasldor baliqni olib kelish xarajatlarning 50 foizi byudjetdan qoplab beriladi.

Baliq xo'jaliklari inkubatsiya, laboratoriya, yopiq suv aylanma tizimlarini import qilishda bojxona bo'jidan ozod etiladi. Intensiv baliqchilikni yo'lga qo'ygan xo'jaliklar uchun yer va mol-mulk soliqlari 2 barobar kamaytiriladi.

Qishloq xo'jaligidagi salohiyatdan to'liq foydalanish maqsadida “ilm-fan — ta'lim — ishlab chiqarish” integratsiyasini ta'minlaydigan Qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasi tashkil etiladi.

Ana shunday keng ko'lamli vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda siz, azizlar faol ishtirok etasiz va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarishga munosib hissa qo'shasiz deb ishonaman.

Sizlarni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga tinchlik-omonlik, baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Joriy yilda erishgan ulkan yutuq va zafarlaringiz bardavom bo'lsin!

Mehnatgizning rohatini ko'ring, azizlarim, qadrdonlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

TINCHLIK VA BARQARORLIK YO'LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR

Davlatimiz rahbarining Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Turkmaniston doimiy betaraflligining 30 yilligi, Xalqaro betaraflik kuni hamda 2025-yilning “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan xalqaro forumdagi ishtiroki ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan aloqalarning yuksak darajasini yana bir bor ko'rsatdi.

Aks sado

Nufuzli forum O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Strategik sheriklik nafaqat davlatlararo aloqalarda, balki butun mintaqa uchun muhim geosiyosiy ahamiyatga ega, desak, ayni haqiqat.

Turkmanistonning doimiy betaraflik maqomining 30 yilligiga bag'ishlangan ushbu forumda Prezidentimiz nutq so'zlab, unda betaraflik siyosatining mintaqaviy va xalqaro barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini yuksak baholadi. Ma'lumki, Turkmanistonning betaraflik maqomi BMT tomonidan ikki marta tan olingan bo'lib, bu davlatning tinchliksevar tashqi siyosatining muhim poydevori hisoblanadi. O'zbekiston ham,

o'z navbatida, mintaqada ochiqchilik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillarini faol targ'ib qilib bermoqda. Bu ikki davlatning tinchlik va barqarorlikka intilishidagi umumiy maqsadlarini aks ettiradi.

2025-yilning “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb e'lon qilinishi esa butun dunyo hamjamiyati uchun juda muhim va dolzarb tashabbusdir. Prezidentimizning ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlashi O'zbekistonning global miqyosda tinchlikni mustahkamlash, xalqlar o'rtasidagi ishonchni tiklash va muloqotni rivojlantirish borasidagi qat'iy pozitsiyasini namoyon etdi. Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda xalqaro hamjamiyatning tinchlikka bo'lgan intilishini birlashtirish esa har qachongidan ham muhim.

Munosabat

XALQCHIL VA HAYOTIY ISLOHOTLARNING HAQQONIY TALQINI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalo, xalqimiz tomonidan ko'tarinki ruhda kutib olinib, unga ijobiy baho berilayotgan bo'lsa, endilikda mazkur o'zgarishlar xorijda ham katta qiziqish uyg'otayotgani ayni haqiqat.

Chunki inson tabiatiga xos bo'lgan bir xususiyat borki, u ham bo'lsa, qilayotgan ishlari uchun e'tirof eshitish. Masalaga chetdan turib nazar solinsa, o'zgarishlarning miqyosi va mohiyatiga his-tuyg'ular emas, balki eng xolis mezon — aniq raqamlar, mantiqiy xulosalar hamda chuqur tahlillar orqali baho beriladi.

Shu nuqtayi nazardan, pokistonlik taniqli yozuvchi va tahlilchi Muhammad Abbos Xon qalamiga mansub “O'zbekiston: uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti” nomli badiiy-publististik asarni mamlakatimizda ro'y berayotgan ayni o'zgarishlarga haqqoniy baho deiyish mumkin. Asarda yurtimizda

kechayotgan tub o'zgarishlar xolislik, chuqur tahlil va intellektual tafakkur asosida yoritilgani bilan nihoyatda ahamiyatli.

Kitobda keyingi sakkiz yilda mamlakatimizda olib borilayotgan hayotiy islohotlar uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi sifatida ochib berilgan. Muallif qonun ustuvorligi, ochiq jamiyat, dinlararo bag'rikenglik, so'z erkinligi va fuqarolik jamiyati institutlarini uchinchi Renessansning institutsional asoslari sifatida tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, Renessans faqat buyuk allomalar yetishib chiqishi bilan izohlanmaydi, balki u erkin fikr muhiti mavjud bo'lgan jamiyatda barqaror shakllanadi.

BEQIYOS YUKSALISH E'TIROFI

Haqiqat shuki, buyuk insonlar o'zining ezgu amallari bilan ellar va millatlarning qalb to'ridan joy oladi. Shu ma'noda, pokistonlik taniqli jurnalisti va yozuvchi Muhammad Abbos Xonning “O'zbekiston: uchinchi Renessans — kelajak konsepti” nomli asari ayni tarixiy davrning badiiy-publististik aksi, Prezidentimizning davlatni strategik boshqarish salohiyati va reformatorlik fenomeniga bag'ishlangan monumental doston sifatida dunyoga keldi.

Kitob taqdimoti marosimida ishtirok etar ekanmiz, o'z hayotini O'zbekiston xalqiga beminnat xizmat qilishga, uning farovonligiga bag'ishlagan Prezidentimizning elu yurt ravnaqi uchun olib borayotgan betimsol jasorati, sa'y-harakatlari ko'z o'ngimizda qayta gavdalandi.

Aytish mumkinki, kitob Prezidentimizning uchinchi Renessans g'oyasini insonparvarlik, ma'rifat va bunyodkorlikka asoslangan falsafiy konsept sifatida butun Sharq olamiga yetkazishni maqsad qiladi.

Muhim fakt va raqamlar



■ Bu yil 875 ming gektar yerda g'o'za ilm-fan yutuqlari va ilg'or agroteknologiya asosida parvarishlangani tufayli qariyb 4 mln. tonna paxta hosili yetishtirildi.

■ Joriy yil o'rtacha hosildorlik paxtachiligimiz tarixida ilk bor 46 sentnerga yetdi. 3 mingdan ziyod fermerlar gektaridan o'rtacha 50 — 60 sentner, 1,5 mingi esa 70 sentnerdan hosil oldi.



■ G'allakorlarimiz bu yil 8 mln. 400 ming tonna xirmon yaratdi, o'rtacha hosildorlik 85 sentnerga yetdi.

■ Sholikorlarimiz 268 ming gektarga sholi ekib, 1 mln. 340 ming tonna hosil oldi, o'rtacha hosildorlik 50 sentnerdan bo'ldi.

■ So'nggi uch yilda 155 ming gektar bog' va uzumzor barpo etildi, intensiv bog'lar 150 ming gektarga yetkazildi.

■ Joriy yilda 3,4 mln. tonna meva, 2 mln. tonna uzum, 19,5 mln. tonna sabzavot, poliz va kartoshka, 1 mln. tonna dukkakli va moyli ekinlar yetishtirildi.



RIZQ-RO'ZIMIZ BUNYODKORLARINING QUVONCHLI AYYOMI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 25-avgustda imzolangan “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kunini belgilash to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni etib belgilangan. Shundan buyon mazkur sana agrar sohada mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz tomonidan kasb bayrami sifatida keng nishonlab kelinmoqda.

Sarhisob

Davlatimiz rahbarining qishloq xo'jaligi xodimlariga yo'llagan tabrigida ta'kidlanganidek, mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz turmush farovonligi ta'minlanishi, eksport salohiyati oshishida iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lmish qishloq xo'jaligining roli nihoyatda katta. Shu bois sohaning huquqiy asosini mustahkamlab, qulay agrobiznes muhitini yaratish, amaliyotga bozor munosabatlarni izchil joriy etish, dehqon va fermerlar manfaatlarini himoyasini kuchaytirish orqali mahsulot yetishtirish hajmini ko'paytirish islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi soha taraqqiyotida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Unda aks etgan 9 ta ustuvor yo'nalish asosida agrar soha modernizatsiya va diversifikatsiya qilinayotgani muvaffaqiyatlarni yanada mustahkamlamoqda. Joriy yilda 64 ta normativ hujjat, jumladan, “Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida”gi, “Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish



to'g'risida”gi qonunlar imzolangan fikrimiz tasdiq'idir.

Dehqonchilik mavsumi yakunlanib, qishloq xo'jaligi sarhisob qilinaotgan bugungi hosil bayramida joriy mavsum sohaning barcha tarmoqlari uchun yutuqlarga boy, omadli va barakali bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Sababi 2025-yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 517,5 trln. so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Oziq-ovqat sanoatida esa 142,2 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 107 foizga yetishi hisob-kitob qilingan.

Mutaxassislarining fikricha, joriy mavsumda agrar sohada yangi yernlarni o'zlashtirish yoki qo'shimcha resurs va manbalar evaziga emas, balki amaliyotga ilm-fan yutuqlari va ilg'or agroteknologiyalar keng tatbiq etilgani tufayli samaradorlik yanada ortdi. Buni paxtachilikdagi natijalar ham tasdiqlaydi.



■ Qishloq xo'jaligi to'qimachilikdan keyingi eng ko'p valyuta olib kelayotgan sohaga aylandi.

■ Yil boshidan oziq-ovqat eksporti 37 foiz o'sib, 3 mlrd. dollarga yetdi.

■ Meva-sabzavotlarimiz kirib borgan davlatlar soni 18 taga ko'payib, 83 ta bo'ldi.



PARLAMENTLARARO ALOQALAR ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQILDI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Alisher A zamxo jayev Koreya Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Von Do Yon bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Janubiy Koreya strategik munosabatlarining ayni holati hamda ikki tomonlama parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama markazida bo'ldi. Uchrashuvda bo'lajak O'zbekiston – Janubiy Koreya parlamentlararo uchrashuvlariga puxta tayyorgarlik ko'rish va ularni yuqori darajada o'tkazish masalalari ham ko'rib chiqildi.

NAVQIRON AVLODNI ILHOMLANTIRUVCHI MULOQOT

Oliy Majlis Senatida oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlarning yoshlar yetakchilari uchun "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi.

Senat va yoshlar

Tadbir davomida senator Malika Qodirxonova yoshlarga parlament yuqori palatasining asosiy vazifalari, qonunchilik jarayonidagi ishtiroki hamda Senatning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, muloqot chog'ida yoshlarning qonunchilik tashabbuslari, ilgari surayotgan loyihalari va talabalar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tashabbuslarga alohida e'tibor qaratildi.

“Xalq soʻzi”.

XALQCHIL VA HAYOTIY ISLOHOTLARNING HAQQONiy TALQINI

Asarda inson kapitaliga alohida urg'u berilgan. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, oliy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish, ilm-fanni iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'lash kabi masalalar uchunchi Rennessansing hal qiluvchi omillari ekanini ta'kidlangan.

Muallif ma'naviyat va axloq masalalarini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Uning fikricha, axloqiy qadriyatlardan uzilgan texnologik taraqqiyot jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda, O'zbekistonda milliy an'analari, islom ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan siyosat ijobiy baholalanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Muhammad Abbos Xon O'zbekiston tajribasini Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan qiyoslab, islom sivilizatsiyasi doirasida zamonaviy taraqqiyotga erishish mumkinligini ko'rsatadi va faqat yutuqlar emas, balki hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni ham qayd etadi. Jumladan, ta'lim sifatini oshirish, ilm-fanni

qo'llab-quvvatlash va intellektual mustaqillikni mustahkamlash masalalari muhim chaqiriqlar sifatida tilga olingan.

Muallif uchunchi Rennessans g'oyasini ilgari surgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning falsafiy platformasi va strategik qarashlarini atroficha ochib bergan. Qarama-qarshilik o'rniga hamkorlik, jaholat emas ma'rifat, dushmanlik kayfiyati o'rniga ishonchni nazarda tutuvchi O'zbekistonning yangi gumanistik yondashuvini alohida e'tirof etgan. Aslida bu Yangi O'zbekistonning butun dunyoga yo'llagan asosiy da'vatidir.

Tan olish kerakki, bugungi O'zbekistondagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va ma'naviy qarashlariga bog'liq. Kitobda Prezidentimiz fenomeni faqat islohotchi yoki pragmatik rahbar sifatida emas, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojiga mas'uliyat bilan yondashadigan yetakchi sifatida ham talqin qilingan.

Asarning o'q tomirini tashkil etuvchi yana bir muhim muloqot – “Jamiyat hayotining tanasi

iqtisodiyot bo'lsa, joni va ruhi – ma'naviyat” ekanligi falsafasidir. Muhammad Abbos Xon ushbu fikrni O'zbekistondagi amaliy siyosat bilan bog'lab, iqtisodiy islohotlar ma'naviy negizga tayanmas ekan, ular barqaror va samarali bo'lmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Prezident Shavkat Mirziyoyev aynan shu muvozanatni ta'minlashga intilmoqda. Ya'ni iqtisodiy o'sish bilan birga ma'naviy yangilanishni ham davlat siyosati darajasiga ko'tarmoqda.

Kitobda uchunchi Rennessans g'oyasi atroficha tahlil qilinib, uning markazida inson omili turgani alohida qayd etilgan. Ya'ni O'zbekistondagi islohotlar nafaqat iqtisodiy

ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki xalqning ma'naviy birlamligini mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash va inson salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bilan ahamiyatlidir. Haqiqatan ham, “Yangi O'zbekiston” tushunchasi aynan Prezidentimiz rahbarligida ma'naviy va iqtisodiy islohotlarning uyg'unligi asosida shakllanmoqda. Xususi sektorni rivojlantirish, innovatsiya va kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash orqali xalqning moddiy farovonligi oshirilgan ekan, ta'lim, ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar insonning ichki dunyosi va tafakkurini yangilamoqda. Ayni shu jihatlar kitobda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim yutuqlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Muhammad Abbos Xonning “O'zbekiston: uchunchi Rennessans – taraqqiyot konsepti” nomli publitsistik asarida mamlakatimizda keyingi yillarda inson qadriini yuksaltirish borasida olib borilgan shiddatli, xalqchil va hayotiy islohotlar xolis va haqqoniy talqin qilingan. Asar O'zbekistonni o'z tarixiy ilidzlariga tayangan holda global kelajakka intilayotgan mamlakat sifatida yaqqol tasvirlaydi. Qolaversa, uchunchi Rennessans g'oyasini nafaqat O'zbekiston uchun, balki umuminsoniy taraqqiyot jarayonining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

BEQIYOS YUKSALISH E'TIROFI

Unda ta'kidlanishicha, uchunchi Rennessans bu jamiyat ongini uyg'otishga qaratilgan ma'naviy va madaniy chorlovdir. Davlatimiz rahbari islohotlarining asl mohiyati – “inson qadriini ulug'lash” tamoyilini davlat siyosatining har bir jabhasiga singdirishdir. Bu – o'zbek xalqining buyuk ajdodlari merosidan ilhomlanib, ta'lim, ilm-fan, ochiqlik va adolat kabi zamonaviy jadicilik tamoyillarini jadal amalga oshirish dasturi.

Demak, O'zbekistonning so'nggi to'qqiz yildagi ochiqlik va bunyodkorlik davriga o'tishi, taraqqiyoti o'z-o'zidan bo'lmaganini jahon hamjamiyati chuqur anglamoqda, desak, ayni haqiqat. Xususan, mamlakat yalpi ichki mahsulotining ikki barobarga o'sishi, xorijiy investitsiyalar hajmining

yuqori sur'atlarda oshishi va eksportning keskin ko'tarilishi sog'lom raqobat muhiti, investorlar huquqini himoya qilish va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish siyosatining samarasidir. Minglab yangi korxonalarning tashkil etilishi, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligining oshishi – bu islohotlarning teranligini, davlatni xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan qat'iy maqsadni ko'rsatadi.

Kitob Prezidentimizning yangi jamiyat barpo etishda amalga oshirayotgan strategik chora-tadbirlari, uzoqni ko'zlab fikrlashi Markaziy va Janubiy Osiyoni qayta bog'lashga qaratilgan Transfa'lon temir yo'li kabi ulkan loyihalarda namoyon bo'lishini tahlil qiladi. Bu tashabbuslar regional infratuzilma

rivojigina emas, balki mintaqada tinchlik, o'zaro ishonch va iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan, geosiyosiy mas'uliyatni zimmasiga olgan dono liderning salohiyatini namoyon etishini ta'kidlaydi.

Bugun O'zbekiston – ochiqlik, taraqqiyot va inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyatga intilyapti. Shu ma'noda, “O'zbekiston: uchunchi Rennessans – kelajak konsepti” kitobi nafaqat mamlakatimizdagi, balki mintaqadagi o'zgarish jarayonlarini, zamonaviy taraqqiyot yo'lini dunyoga tanitishda muhim qadamlardan bo'ldi, desak, xato emas.

Manzura SALIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TINCHLIK VA BARQARORLIK YO'LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR



Xavfsizlik – farovonlik asosi

Yangi O'zbekiston uchun jahonga ochiqlik, o'zaro hurmat va muloqotga intilish – davlat siyosatining fundamental qadriyatlar. O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida global muammolarni birgalikda hal etishga, umumiy farovonlikka erishishga intiladi. Aynan shu sababli O'zbekiston umumiy xavfsizlik hamda farovonlik yo'lida birlamlik bo'yicha Samarqand tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbus insoniyat kelajagiga befarq bo'lmagan, tinchlik, totuvlik va barqaror taraqqiyotga intilayotgan barcha tomonlarni o'zaro hurmat hamda ishonch asosida muloqotga jalb etishga qaratilgan.

Turkmanistonning betaraflik modeli ham, O'zbekistonning ochiq va konstruktiv tashqi siyosati ham global tinchlikni mustahkamlash, xalqaro huquq normalarini hurmat qilish hamda davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish kabi umumiy maqsadlarga qaratilgan. Ikki davlatning bu boradagi sa'y-harakatlari nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo uchun ham tinchlik va barqarorlikka erishishning muhim yo'li ekanini yorqin namoyon etmoqda.

Birgalikdagi tashabbuslar kelajak avlodlar uchun yanada farovon hamda xavfsiz dunyo qurish yo'lidagi umumiy azmu qat'iyatning ramzidir. Negaki, dunyo miqyosida siyosiy keskinlik kuchayib, davlatlar o'rtasidagi ishonch zaiflashayotgan bir paytda, tinchlikparvarlik va vositachilik tamoyillariga sodiqlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda O'zbekiston hamda Turkmanistonning Markaziy Osiyoda tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari alohida e'tiborga molik.



Shu o'rinda O'zbekiston Qo'shilmaslik harakatiga raislik qilayotganida tinchlik hamda zo'ravonlikdan xoli bo'lgan madaniyatni targ'ib etish, siyosiy muloqot orqali davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash hamda jahonda bag'rikenglik, hamjihatlik va birlamlikni qaror toptirishni bosh ustuvor yo'nalish sifatida belgilaganini alohida ta'kidlash joiz. Bu ezuq maqsadlarni amalga oshirish yo'lida O'zbekiston 2027-yilni “Preventiv diplomatiya yili” deb e'lon qilishni rejalashtirmoqda.

Mazkur tashabbus doirasida xalqaro konferensiya hamda forumlar uyushtirish, parlament, jamoat va yoshlar delegatsiyalarining o'zaro almashuvlarini kengaytirish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda BMTning ixtisoslashtirilgan institutlari, xususan, Ashxoboddagi Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Global muammolarga qaratilgan muhim tashabbuslar

Turkmanistonning 2025-yilni “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb e'lon qilish haqidagi taklifi ham ana shunday global muammolarga qaratilgan muhim tashabbusdir. O'zbekiston ushbu taklifni to'liq qo'llab-quvvatlagan holda BMT Bosh Assambleyasining tegishli rezolyutsiyasining hammuallifi sifatida faol ishtirok etmoqda. Bu global g'oya qarama-qarshiliklarni rad qilib,

mojarolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga sodiq hamda tinchlik o'rnatish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rish tarafdori bo'lgan mamlakatlarning birlashuviga zamin yaratadi.

O'zaro ishonch, hurmat va jipslik tamoyillari Markaziy Osiyoni tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik makoniga aylantirish borasidagi siyosatning asosini tashkil etadi. Toshkentda bo'lib o'tgan mintaqada davlatlari rahbarlarining yettinchii Maslahat uchrashuvi hamjihatlikni mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlar hamda

mamlakatlar bo'yicha uchunchi konferensiyasining o'tkazilishi ham mintaqada yagona transport-logistika makonini shakllantirishga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Mintaqaviy xavfsizlikka yondashuvda yana bir o'xshashlik bor. Afg'onistondagi mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb etish va infratuzilmaviy bog'liqlikni kuchaytirish orqali tinch yo'l bilan rivojlantirishga ko'maklashish masalalari bo'yicha O'zbekiston va Turkmanistonning yondashuvlari to'liq mos keladi. Rasmiy Ashxobodning energetika va suv xavfsizligi, barqaror transport

“**Birgalikdagi tashabbuslar kelajak avlodlar uchun yanada farovon hamda xavfsiz dunyo qurish yo'lidagi umumiy azmu qat'iyatning ramzidir. Negaki, dunyo miqyosida siyosiy keskinlik kuchayib, davlatlar o'rtasidagi ishonch zaiflashayotgan bir paytda, tinchlikparvarlik va vositachilik tamoyillariga sodiqlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda O'zbekiston hamda Turkmanistonning Markaziy Osiyoda tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari alohida e'tiborga molik.**

ko'p qirrali iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga mintaqamiz davlatlari tayyor ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

Shu ma'noda, Turkmanistonning konstruktiv va tinchliksevarlik siyosati Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Rasmiy Ashxobod 2018-yilda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga a'zo davlatlar rahbarlarining birinchi sammitini tashkil etib, jamg'arma doirasida oliy darajadagi muloqotlarni qayta tiklashda katta rol o'ynadi. Shu yilning avgust oyida Avazada BMTning dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan rivojlanayotgan

bog'liqligini ta'minlash, mintaqada ekotizimni himoya qilish borasidagi tashabbuslari Markaziy Osiyodagi sa'y-harakatlarni tabiiy ravishda to'ldirmoqda.

O'zaro hurmat, ishonch hamda hamjihatlikka asoslangan hamkorlik har qanday ulug'vor rejaning hayotga tatbiq etilishi uchun poydevor hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi murakkab global sharoitda, mazkur qadriyatlarning gumanitar hamkorlik orqali ilgari surilishi nafaqat muhim, balki hayotiy zarurattir. O'zbekiston bu borada faol pozitsiyani egallab xalqaro maydonda tinchlik, ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan aniq tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Jumladan, kelgusi yilda

Toshkentda ijodiy jamoalar, olimlar va adiblar ishtirokida “Madaniyatlar muloqoti” deb nomlangan qo'shma xalqaro gumanitar forum tashkil etiladi. Bunday forumlar turli madaniyatlar vakillariga o'z tajribalarini almashish, umumiy qadriyatlarni topish va global muammolarga birgalikda yechim izlash imkonini beradi.

Ayniqsa, yoshlarni tinchlik jarayonlariga jalb qilishga qaratilgan tashabbus alohida e'tiborga loyiq. Prezidentimiz taklif etgan “Yoshlar tinchlik va ishonch yo'lida” mintaqaviy dasturi ta'lim, madaniyat va volontyorlik harakati sohalaridagi birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali kelajak avlodni tinchlik va ishonch ruhida tarbiyalashni maqsad qilgan.

Darvoqe, gumanitar hamkorlik faqatgina madaniy almashinuv yoki yordam berish emas. Bu, avvalo, inson kapitaliga investitsiya kiritish, o'zaro tushunish va birlamlikni oshirish demak.

O'zbekistonning “Madaniyatlar muloqoti” hamda “Yoshlar tinchlik va ishonch yo'lida” kabi dasturlarni ilgari surishi, uning geosiyosiy manfaatlardan tashqari umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini ko'rsatadi. Bu bilan O'zbekiston dunyoda adolati va barqaror tartibotni barpo etishga amaliy hissa qo'shishga tayyor ekanini doimiy ravishda isbotlab kelmoqda.

Mamlakatimizning gumanitar hamkorlik orqali tinchlik va ishonchni mustahkamlashga qaratilgan takliflari bugungi kunning eng dolzarb chaqiriqlariga javob beradi. Ular xalqaro hamjamiyatga o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarga umumiy farovonlik hamda barqarorlikka erishishning yagona yo'li ekanini yana bir bor eslatib turadi.

Bahodir XOLIQOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori,
professor.

RIZQ-RO'ZIMIZ BUNYODKORLARINING QUVONCHLI AYYOMI



G'allachilikdagi ko'rsatkichlar ham chakki emas. Yangi mahalliy navlar va biotexnologiya orqali bu yil 8 mln. 400 ming tonna xirmon yaratildi. O'rtacha hosildorlik 85 sentnerga yetdi. 3,5 mingdan ziyod fermerlar esa har gektar yerdan 100 sentnerdan don olib, el-yurt xirmoniga munosib hissa qo'shdi.

Kezi kelganda, bog'bonu sohibkorlarimiz yangilikka o'chligi, izlanuvchanligi tufayli xaridorgir noz-ne'matlar yetishtirishning hadisini olganini ham aytish zarur. Natijada keyingi yillarda tashqi bozorda “O'zbekistonda yetishtirilgan” brendi shakllandi. Ayni paytda quritilgan shalo'o'ri va o'rik eksporti bo'yicha dunyoda 3-o'ringa, olto'o'ri va mayizda 7, gilosda 8, uzumda 13-o'ringa chiqilgani buning yaqqol dalilidir.

Sarxil va quritilgan mevalarimiz eksport geografiyasi joriy yilning o'zida 18 ta davlatga kengayib, dunyoning 83 mamlakatiga umumiy qiymati 3,0 mlrd. dollarlik mahsulotlar yetkazib berildi. 73 dan ortiq mahalliy eksportyorlar Xitoyning maxsus eksport reestriga kiritildi, 8 ta davlatga 36 turdagi mahsulot eksporti uchun fitosanitar ruxsat olinib, ularning soni 646 taga yetkazildi. Pirovardida qariyb 2,5 mlrd. dollarlik qishloq xo'jaligi, 1 mlrd. dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindi.

Shubhasiz, ushbu ulkan natijalar ortida dehqon va fermerlarimiz, klasterlar, umuman, qishloq va suv xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan insonlarning jasorati, fidoyi xizmatlari turibdi. Shunday ekan, bugun turfa noz-ne'matlar yetishtirib, el dasturxoniga qut-baraka olib kirayotgan dehqon, fermer, bog'bon, chorvador, suvchi, agronom va mexanizatorlarning fidokorona va mashaqqatli mehnati har qanday olqishga loyiq.

Shu o'rinda yurtimizda qishloq xo'jaligi korxonalarining (paxta-g'allachilikdan tashqari) moliyaviy barqarorligini ta'minlash, sohada daromad manbaini oshirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'ini “nol” qiymatida belgilash tizimi yo'lga qo'yilgani katta rag'bat bo'layotganini alohida e'tirof etish joiz. Chunki bunday g'amxo'rlik tufayli soliq yukini keskin yengillashtirish imkonini yaratilib, 45 mingga yaqin fermer xo'jaliklari ixtiyorida 800 mlrd. so'mga yaqin mablag' qolmoqda.

Bundan tashqari, o'z sarmoyasi hamda tijorat krediti hisobidan paxta xomashyosini yetishtirib, birjada sotgan qishloq xo'jaligi korxonalariga paxta qiymatining 10 foizigacha subsidiya berish tizimi amalda. Ayni paytda 3,5 mingdan ortiq korxonalar 153 ming gektar yer maydonida o'z hisobidan paxta yetishtirib, moliyaviy ko'makdan bahramand bo'lishmoqda. Shuningdek, paxta yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar hosil yilining 31-dekabrigacha qaytarilganda kredit foizining 4 foizini qoplab berish tizimi yo'lga qo'yildi. Yana bir qulaylik, birjada realizatsiya qilingan har bir tonna paxtaga 1 mln. so'mdan subsidiya ajratiladi. Bu orqali fermer xo'jaliklari 3,0 trln. so'mdan ortiq qo'shimcha daromad olishga erishadi. Mana, qishloq xo'jaligi xodimlariga e'tibor va rag'batning yorqin namunasii!

Aytish joizki, qishloq xo'jaligi samaradorligi oshishi nafaqat dehqonchilikka zamonaviy yondashuv, balki yangi rusumdagi va yuqori unumli texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liq. Shu bois xalqaro moliya institutlari mablag'lari keng jalb qilingani holda lizing xizmatlarini moliyalashtirish tizimi joriy etildi.

Qishloq xo'jaligi vazirligidan ma'lum qilishlaricha, lizing xizmatiga xalqaro moliya institutlarining 200 mln. dollar mablag'i yo'naltirilib, fermer va dehqonlarga 4,8 mingdan ortiq zamonaviy qishloq xo'jaligi texnika va agregatlari yetkazib berildi. Umuman olganda, o'tgan davrda qishloq mulkdorlari lizing orqali 11 mingdan ziyod faoliyatlari uchun zarur texnikalar sotib oldi. Bu boradagi ishlar ko'lami kelgusida yanada kengaytirilishi ko'zda tutilgan. Misol uchun, paxtachilikda mexanizatsiyalash darajasini 85 foizga yetkazish uchun yana 800 ta terim mashinasi, 450 ta ko'p funksiyali seyalka va 3 ming dona plyonka yig'adigan mashina olib kelinishi kutilmoqda. Bularning bari taqdiri yeri bilan bog'langan insonlarning og'irini yengil qilish, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.



ro'zimiz, farovon hayotimiz bunyodkorlarigina emas, balki o'zlarining fidoyiligi, kasbiga sadoqati orqali jamiyatda mehnat madaniyati, sabr-qanoat kabi yuksak qadriyatlarni targ'ib etib kelayotgan matonat sohiblari hamdir. Negaki, ular erta bahordan baraka urug'ini yer bag'riga mehr bilan qadab, bir nihol ustida butun mavsum davomida parvona bo'lib, ter to'kadi. Tinimsiz mehnatning totli mevasi – mo'l hosilni kech kuzda yig'ishtirib oladi. Bunday zahmatli, ayni paytda sharafli ishning boshini tutgan insonlar har qancha olqishga sazovor. Davlatimiz rahbarining ta'бири bilan aytganda, umrini, mehnatini saxovatli zaminimiz bilan bog'lagan fidoyilar haqiqiy vatanparvardir.

Said RAHMON
(“Xalq soʻzi”).



YANGI OʻZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI

Burilish nuqtasi

Ochigʻi, 2016-yilga qadar qishloq xoʻjaligiga oid majlislarda hech

narsa hal boʻlmasdi. Va tinimsiz, kechki, tungi vaqtlarga chaqiriladigan majlisga oxirzamonga ketayotgandek borardik. Gʻalla, paxta topshirish mavsumida har bir rejani bajarmagan fermer tungi soat 24.00 ga elevatorga, paxta zavodiga majlisga

chaqirilardi. U yerda tuman hokimi tuman prokurori va IIB boshligʻi rejani bajarmayotgan har bir fermer bilan gaplashardi. Va bu "mashvarat"lar tonggi soat toʻrtlarga qadar davom etardi. Qolaversa, fermerni ertalab soat oltida oʻz dalasida mulozimlar militsionerlar hamrohligida kutib olardi. Fermer paxta terishga, gʻalla oʻrishga majburlanardi. Dalasida gʻalla yoki paxta qolganmi, yoʻqmi, bunisi keyingi masala...

HAQIQATGA AYLANGAN AFSONA

Bunaqa, oʻz tajribamga asoslangan, oʻzim guvoh boʻlgan voqealardan istagancha hikoya qilishim mumkin.

Mana, boʻlar ekan-ku?!

2017-yili Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sentabrda Amerikadan turib barcha hasharchilarni, talabalarni ish, oʻqish joylariga qaytardi. Bu davrda fermer xoʻjaligimizni chorvachilikka aylantirganimiz bois ushbu qaror toʻgʻridan-toʻgʻri bizga aloqador boʻlmasa-da, baribir qoʻrqdik. Endi bizga bosim qilishadi, deb.

E, boʻlar ekan, paxtani fermerlarning oʻzlari terib olsa. Noyabrda dalalarda paxta qolmadi. Bizga oʻxshaganlarga tegishmadi. Tashkilotlar xodimlari ham oʻz ish joylarida ishlashdi, talabalar xotirjam oʻqishdi... Mana, 2025-yil mutlaqo boshqacha zamon boʻldi. Xitoydan Jizzax viloyatining har bir tumaniga yuzlab paxta

terish mashinalari keltirildi. Inson qoʻl mehnati bir necha barobar yengillashtirildi. "Xitoy unaqa, Xitoy bunaqa", deya ayyuhannos solganlar ham boʻldi, ammo...

Nima? Oʻzbek dehqoni qoʻl mehnati bilan qolib ketaverishi kerakmi?

Har yili bizning fermerlarning paxtaazorini oʻt bosib ketardi. Fermer paxtaazorini uch – besh martaga qadar qoʻlda chopiq qilib, begona oʻtdan tozalashga majbur edi. Sakkiz – oʻn marta kultivatsiya qilardi... 2018-yili Paxtakor tumanlik tadbirkor-fermer Zokir Yaxshiboyev Amerikaga borib, tajribasini oshirib keldi. Aytidiki: amerikaliklar suv quvurlarini yer ostiga koʻmib, yomgʻirlatib sugʻorisharkan. Yerni haydama, kultivatsiya ham yoʻq, begona oʻt oʻsmas ekan. Yerini sugʻorarkan-da, paxtani koʻchat qilib ekarkan.

Afsona edi bu gaplar. Qishloq xoʻjaligi ichida yurgan shaxsan men uchun ham.

E, boʻlar ekan, paxtani fermerlarning oʻzlari terib olsa. Noyabrda dalalarda paxta qolmadi. Bizga oʻxshaganlarga tegishmadi. Tashkilotlar xodimlari ham oʻz ish joylarida ishlashdi, talabalar xotirjam oʻqishdi...

Afsuski, oʻshanda ana shunaqa tizim bizda ommalashmadi. Bizning fermerlarning iqtisodiy imkoni yetishmadi.

Mana, 2025-yili xitoylik fermerlar amerikaliklarning bu ishi afsona emasligini isbotlashdi. 2025-yili ular paxta oʻstirgan yerlarda begona oʻt ummadi, kultivatsiya qilinmadi, paxta mashinalarda terib olindi. Tagʻin deng, har bir gektardan

80 – 90 sentnerdan! Oʻzbekiston paxtachiligi tarixida boʻlmagan bunaqa yuqori hosildorlik. Tagʻin deng, barcha koʻsaklar birdan, bir tekis ochildi, uni mashinada bir marta terib olishdi, tamom.

Afsona! Koʻrmagan, bilmagan odam bunaqa boʻlishiga ishonmaydi.

Haqiqat bu! Keyingi yillari amalga oshirilgan va oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy islohotlar natijasi bu.

Yaqinda Jizzax viloyatiga tashrif buyurgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ulugʻbek Mustafoyevni viloyat hokimligiga tasdiqladi. "Vazifasini bajaruvchi" degan ilova olib tashlandi. Qishloq xoʻjaligida, sanoatda va umuman, barcha sohalaridagi ibratli ishlarni alohida eʼtirof qilib, shu yoʻnalishni ommalashtirishni davom ettirish kerakligini taʼkidladi.

Qishloq xoʻjaligi xodimlari

kuni munosabati bilan soha rivojiga salmoqli hissa qoʻshib kelayotgan jizzaxlik paxtakor, bogʻbon, fermer va agrar sohaning fidoyi vakillari ham kuni kecha davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Ularga davlat mukofotlarini viloyat hokimi Ulugʻbek Mustafoyev topshirdi.

Shuningdek, Toshkent shahrida oʻtkazilgan nufuzli tadbirda Jizzax viloyati hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari Zafar Roʻziyev "Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan qishloq xoʻjaligi xodimi" faxriy unvoni, Sharof Rashidov tumanidagi "Qoʻrgʻontepa" fermer xoʻjaligi rahbari Abdunabi Abdurahmonov "Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan paxtakor" unvoni, Zafarobod tumanidagi "Forish yoʻllari" fermer xoʻjaligi rahbari Rustam Raimqulov esa "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.

Biz nafaqat davlat mukofotiga munosib koʻrilganlarni, balki agrar sohada afsonaviy oʻzgarishlarga kamarbasta boʻlayotgan barcha qishloq xoʻjaligi xodimlarini kasb bayrami, eng asosiysi, mehnati qadr topgani bilan tabriklaymiz.

Abulqosim MAMARASULOV ("Xalq soʻzi").

TAHSINGA SAZOVOR YUTUQLAR

Yillar sinovidan oʻtgan, tajribasiyu oʻzi sevgan soha boʻyicha yetarli bilimga ega boʻlgan kishi bilan suhbatlashib sezasizki, Yangi Oʻzbekistonda inson qadri baland, halol mehnat ortidan roʻzgʻor tebratayotgan jonkuyarlar davlat mukofotlariga sazovor boʻlishayotir. Davlatimiz rahbari esa qishloq xoʻjaligida band boʻlgan kattayu kichikning roʻzgʻori toʻkin, oilasi tinch, farzandlari baxtli boʻlishini astoydil istaydi. Buni deyarli har bir nutqidan, viloyatlarga qilgan tashriflar chogʻida odamlar bilan uchrashuvlardagi soʻzlaridan yaqqol anglash mumkin.

Mushohada

Shu oʻrinda Qishloq xoʻjaligi xodimlari kuni munosabati bilan yaqinda oʻtkazilgan uchrashuvdagi samimiy soʻzlarga eʼtibor qaratimg. "Sizlarning nafaqat qishloq xoʻjaligi, balki iqtisodiyotni yuksaltirish, aholi turmushini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi beqiyos ishlaringiz har qancha tahsinga sazovor", dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, bugun agrar soha fidoyilari erishgan yutuqlar salmoqli, rejalar esa katta. Hosildorlikning paxtayu gʻallada 80 – 85 sentnerdan yuqori boʻlishi kechagina xayolga kelmasdi, bugun esa bu oddiy holatga aylanayapti. Kelgusida raqamlar yanada oshadi. Chunki "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasida har bir gektar yerdan olinadigan oʻrtacha yillik daromadni 5 ming dollarga, jami eksport hajmini esa yiliga 10 mlrd. dollarga yetkazish belgilangan, shuningdek, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash koʻrsatkichi 25 foizdan yuqori boʻlishi koʻzda tutilgan.

Hozirgi paytda suvdan oqilona foydalanish masalasi ham juda dolzarb. Shu bois davlatimiz rahbari talabiga koʻra, suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln. gektarga, jumladan, tomchilatib sugʻorish texnologiyasini 600 ming gektarga yetkazish, 18,7 ming km. yoki 66 foizi tuproq

oʻzanli boʻlgan magistral va xoʻjaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kilometr ga yetkazish koʻzda tutilgan.

Bundan tashqari, keyingi yillarda agrometeorologik bashoratlash sohasida ham oʻzgarishlar koʻzga yaqqol tashlanmoqda. Ikki yillik qisqa davr oraligʻida bashoratlarning ishonchlilik darajasi keskin oshdi va bu ham xalqimizni quvontirmoqda.

Ayni chogʻda agrar sohada 22 ta ilmiy dargoh, 260 ta laboratoriya faoliyat yuritmoqda. Bu institutlarning boshini qovush tiradigan boʻlgʻusi Qishloq xoʻjaligi fanlar akademiyasi, davlatimiz rahbari niyat qilganidek, "ilm – taʼlim – ishlab chiqarish" zanjirini bogʻlab turuvchi markazga aylanadi.

Prezidentimiz tomonidan qishloq xoʻjaligining barcha boʻgʻinlarini qamrab olgan islohotlar – hosildorlikni oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer va dehqonlar mehnatini ragʻbatlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish kafolatini bermogʻda. Bu jarayonda xalqimiz, albatta, islohotlar markazida, "qaynoq nuqta"larda boʻladi.

Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

FAROVONLIKKA HISSA QOʻSHAYOTGAN QAHRAMONLAR

Mamlakatimiz hayotidagi biror soha yoʻqki, davlatimiz rahbarining eʼtiboridan chetda boʻlsin. Ayniqsa, keyingi yillarda agrar tarmoqning isloh qilinishi, tizimga xorijiy texnika va texnologiyalarining kirib kelishi millionlab odamlar roʻzgʻoriga qut-baraka keltirdi. Davr talabiga mos ravishda qonunlar takomillashtirilayotgani, inson kapitali tajriba va shijoat uygʻunligida namoyon boʻlayotgani ham eʼtiborga molik. Prezidentimiz sohada erishilgan yutuqlarni Qishloq xoʻjaligi xodimlari kuni arafasida davlat mukofotlariga sazovor boʻlgan bir guruh yurtdoshlarimiz bilan uchrashuv chogʻida alohida eʼtirof etdi.

Faxr

Darhaqiqat, bugun 3,5 milliondan ortiq aholini band qilgan qishloq xoʻjaligi tizimi oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy mustaqillikning eng muhim kafolatiga aylanmoqda. Shu bois Yangi Oʻzbekistonda agrar sohani isloh qilish nafaqat qishloqdagi ishlab chiqarishni kuchaytirish, balki butun davlat siyosatining uzviy qismini tashkil etayotir.

Soʻnggi yillarda paxta va gʻalla maydonlarining 250 ming gektari oziq-ovqat ekinlarini yetishtirishga yoʻnaltirildi. Bu qishloq xoʻjaligida haqiqiy tarkibiy oʻzgarishlarni boshlab berdi. Shu bilan birga, 160 ming gektarda yangi bogʻ va uzumzorlar barpo etildi, yana 107 ming gektar plantatsiyalar toʻliq tiklandi. Bu oʻzgarishlar nafaqat ichki bozorni taʼminlashga, balki eksportni oshirish imkon bermogʻda.

Agrobiznesni rivojlantirishda qayta ishlash korxonalarini koʻpaytirish, sanoatni takomillashtirish juda muhim. Keyingi yillarda 1,5 mingdan ziyod oziq-ovqat sanoati loyihalari amalga oshirilib, unga qariyb 1 mlrd. dollar investitsiya jalb etildi. Bu nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirdi, balki qishloq joylarida minglab yangi ish oʻrinlarini yaratdi, mahalliy iqtisodiyotning jonlanishiga xizmat qilmogʻda.

"Aqli" qishloq xoʻjaligi agrar sohaga beqiyos yangiliklar olib kirayotgani ham bor gap. Bu sohaning istiqbolini belgilab beruvchi muhim qadamdir. Avval ortiqcha vaqt va qiyinchilik talab qilgan davlat xizmatlari bugun

raqamlashtirilib, tezkor va shaffof shaklga keltirilmoqda. Zamonaviy qulaylik, internet imkoniyatlari subsidiya va grantlar tizimining yanada samarali ishlashini taʼminlamoqda. Shu tariqa ilgari kuzatilgan chalkashligu takrorlanishlarga butkul barham berildi, moliyaviy tizimda inson omilining keskin qisqarib borayotgani qishloq xoʻjaligi sohasida ham sunʼiy toʻsiqlarni olib tashlashga imkon yaratdi. Bu mablagʻlarni manzilli, natijador yoʻnaltirish, adolati taqsimlash kafolati sifatida namoyon boʻlayotir.

Davlatimiz rahbari 2030-yilgacha qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmini 20 foizga oshirish lozimligini aytib oʻtdi. Bu ulugʻvor vazifa soha fidoyilari qatori biz, senatorlar zimmasiga ham katta masʼuliyat yuklaydi. Chunki qishloq xoʻjaligi mahsulotlari moʻl-koʻlligi, bu sohada eksportni kuchaytirish, ichki talabni barqaror qondirgan holda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish kambagʻallikni qisqartirish, aholi farovonligini taʼminlash bilan chambarchas bogʻliq. Qolaversa, shuni alohida taʼkidlash lozimki, bugun agrar sohaning har bir vakili – fermer, dehqon, agronom, mexanizator va mutaxassislar mamlakatning strategik rivojiga oʻz hissasini qoʻshayotgan yurt qahramonlaridir.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining
Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.



MEHNATSEVARLIK ULUGʻLANGAN YURT

Rosti, keyingi yillar mamlakatimiz uchun har tomonlama yuksalish, taraqqiyotni yangi pogʻonaga koʻtarish, eng muhimi, insonga munosabatni oʻzgartirish, uni qadrlash, qalbiga yoʻl topish, orzu-umidlari roʻyobiga qulay shart-sharoitlar yaratish davri boʻldi.

Dil soʻzi

Ayniqsa, bir ogʻiz shirin gap, mehnatga berilgan yuqori baho insonni nechogʻli shod qiladi?! "E, baraka toping, otangizga rahmat", degan soʻzning qudrati ham shunda. Chunki koʻngil mudom yaxshilik istaydi, ezgulikka doimo tashna. Agar inson oʻz fidoyiligi ortidan davlat mukofotiga sazovor boʻlsa-chi? Bu nafaqat odamning oʻziga, balki uning oilasi, jamoasi, mahallasiga yashinday tarqab, barchani quvontiradi, mahallada duv-duv gap boʻladi.

Davlatimiz rahbarining 9-dekabrda "Qishloq xoʻjaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qoʻshgan yurtdoshlarimizdan bir guruhni mukofotlash toʻgʻrisida"gi Farmoni dillardan-dillarga koʻchib yurtimizga bayramona kayfiyat olib kirdi.

Yuksak mukofot bilan taqdirlanganim haqidagi xushxabarni dalaga tut koʻchatlarini ekayotgan bir paytda eshitdim. Va "nahotki, olis bir qishloqda yashab, pillachilik bilan shugʻullanayotgan bir oddiy inson ham davlat mukofotiga sazovor boʻlsa", degan oʻylar xayolimdan kechdi...

Pillachilik bugun qishloq ahli uchun



oila daromadini oshirish manbaiga, ayollarning qoʻlini uzun qiladigan tarmoqqa aylangan. Masalan, shu yil Dildora Joʻrayeva 2 quti ipak qurti boqib, 165 kilo, Tilaxon Mirzayeva 3 qutidan 235 kilo pilla xomashyosini topshirishdi. Har kilo pillani 40 ming soʻmdan hisoblang-chi, qancha pul boʻladi?..

Shu kunlarda xursandchilik ustiga xursandchilik hukm surdi. Qarangki, hindistonlik investor hamkorimiz Ajay Agraval ham yuqori natijalarga erishgan pillakorlarimizga qimmatbaho sovgʻalar taqdim qildi. Chunki ertaga eksportga chiqariladigan tayyor mahsulotning xaridorgir boʻlishi xomashyo sifatiga bogʻliq-da!

Xullas, hozir ham hayajonim bosilgani yoʻq. Aytmoqchi boʻlganim Prezidentimizga ming tashakkur, mukofot uchun va pillachilarga katta eʼtibor qaratayotganlari uchun! Nasib etsa, biz oddiy mehnatkashlarga ham katta ishonch bildirgan Prezidentimiz siyosatiga kamarbasta boʻlib, fidoyi mehnatimiz bilan islohotlar jarayonida yanada faol boʻlamiz.

Manzura RAHIMOVA,
"Norin agropilla" MCHJ rahbari,
"Mehnat shuhrati" ordeni sohibi.

TILLOGA TENG BOYLIK

Pillachilik qishloq xoʻjaligining eng serdaromad sohalaridan biri hisoblanadi. Bir gektar tutzorning oʻzidan daraxtlar orasiga ikki-uch karra dehqonchilik qilish orqali kamida 3 ming dollar sof foyda olish mumkin. Tutning bargi esa ipak qurtini toʻydiradi, qurt esa ipakka aylanib, pillachilik sanoatida qoʻshimcha qiymat zanjirini yaratmoqda. Masalan, joriy yilda respublikamiz boʻyicha 30 ming tonnadan ortiq pilla xomashyosi tayyorlanib, uning barchasi qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotga aylantirildi. Bu – Milliy statistika qoʻmitasining maʼlumoti.

Izlanish

Yuqori sifatli ipakchiilik mahsulotlarining "Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan" yorligʻi bosilgan holda dunyoning koʻplab davlatlariga sotilayotgani esa sanoatga ham, pillakoru klasterga ham manfaat keltirmogʻda.

Bu yil koʻklamda 182 tonna pilla xomashyosini xitoylik investorga qarashli "Huading Industrial" MCHJga topshirdik, – deydi "Agropilla" idorasi bosh hosiloti Sanobar Joʻrayeva. – Klaster har bir kilo pilla uchun 40 ming soʻmdan tarozining boshida toʻladi. Shu bois koʻpchilik pillakoru oilalar bir oy toʻkib 12 mln. soʻmgacha daromad topdi. Bilasiz, Prezidentimiz tomonidan berilgan imtiyozga koʻra, pillakoru daromadi ijtimoiy soliqlardan ozod qilingan. Pilla qurti boqish uchun sarflangan har oylik mehnat bir yillik ish staji, deya baholanishi ham qonuniylashgan. Bu ham aholini behad ruhlandirdi. Ana shu sababli ipak qurti boqishga eʼtibor kuchli. Ayni chogʻda ozuqa manbai sanalagan tutzorlarni koʻpaytirish maqsadida tumanimiz boʻyicha dala chetlariga 208,8 ming tup tut koʻchatini ekishga kirishganmiz.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan pillachilikning klaster tizimiga oʻtishi soha rivojini yangi bosqichga olib chiqdi. Endi pillachilar avvalgidek yillab pilla pulini ololmay sarson boʻlib yurgani yoʻq. Chunki klaster

xomashyoni qayta ishlab, birgina piskentliklar hisobidan 1,5 mln. dollarlik eksportni amalga oshirdi. Nasib etsa, koʻklamda yana ishimiz qaynaydi. Chunki yilning "ilguzildi" payti boʻlmish bahorda pillaning daromadi nafaqat kasanachilar, balki fermerlarning ham joniga oro kiradi.

Qishloq xoʻjaligi xodimlari kuni arafasida eʼlon qilingan Farmonga binoan bir guruh soha xodimlari davlatimizning faxriy unvonlari, orden va medallari bilan mukofotlandi. Ana shu fidoyilar orasida Gulbahor Yusupova, Zamira Komilova singari jonkuyar mutaxassislar borki, ular tom maʼnoda pillachilik taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishmogʻda.

Qolaversa, mutaxassislarning eʼtirof etishicha, bu sohada chiqindining oʻzi yoʻq. Ipak – valyuta, ipak qurti gʻumbagi – baliqchilik uchun toʻyimli ozuqa, gʻongʻi esa yerga malham. Ana shu bois ham yurtimizda yiliga bir marta emas, balki ikki-uch karra pilla boqishga istak oshyapti. Keyingi ikki yil ichida pillachilik ortidan daromad topadigan, mavsumiy ish bilan band boʻladigan aholi 2 mln. nafardan oshadi. Yana oʻnlab zamonaviy qayta ishlash korxonalari paydo boʻladi. Oliylik esa mahalliy ipak qurti zotlariga boʻlgan talab yanada oʻrtishini aytyshmogʻda. Pilla, tom maʼnoda, tilloga aylanmogʻda.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq soʻzi").

Bugungi kunda kimyo sanoati tarmogʻida umumiy qiymati 1 mlrd. dollarlik 21 ta yirik loyiha amalga oshirilmoqda, kelgusi uch yil uchun yana 4,5 mlrd. dollarlik tashabbuslar shakllantirilgan.



Yangi O'zbekistonda xizmatlar sohasining yangi bosqichi:

O'SISH TENDENSIYALARI VA
IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Bugungi kunda jahonda xizmatlar sohasi iqtisodiyotdagi eng tez o'sib borayotgan va yuqori qo'shilgan qiymat hamda ish o'rinlarini yaratish uchun asosiy drayver yo'nalish hisoblanadi.

Mamlakatimizda xizmatlar sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Davlatimiz tomonidan berilayotgan moliyaviy, soliq va ma'muriy imtiyozlar sohani jadal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bu esa yangi ish o'rinlari, sifatli xizmatlar, xususiy sektor faolligi va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlamoqda.

Qolaversa, o'tgan 5 yil davomida davlatimiz rahbarining xizmatlar sohasini rivojlantirish yuzasidan qabul qilgan qarorlari orqali tarmoqda soliq, investitsiya, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, yer resurslaridan foydalanish hamda qulay infratuzilma yaratishga oid bir qancha imtiyozlar joriy qilindi.

Bunda, asosan, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, xizmat turlarini hududlar kesimida kengaytirish va ayniqsa, qishloq joylarda transport, bank, moliya, turizm va savdo xizmatlarini yaxshilash ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishlarini rivojlantirish, ularga xususiy sektorni jalb etish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlar yaratish belgilangan.

Jumladan, moliyaviy
qo'llab-quvvatlash bo'yicha:

- 1) xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Tiktlanish va taraqqiyot jamg'armasidan 150 mln. AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ochildi;
- 2) respublikamizning barcha shahar va tumanlari markazlarida turizm, transport, tibbiyot, ta'lim obyektlari va yirik savdo komplekslarini tashkil etish loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy banklardan 200 mln. AQSH dollari jalb qilindi;

"Aydarko'l Resort" dam olish va
turizm majmuasi shunday tus olmoqda

"Miraki" dor yo'li loyihasidan ko'rinishlar

